


O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dasturi Sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 17-noyabrdagi 291-sonli buyrug'i asosida Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi Olimlar Kengashida 2021-yil 23-noyabrdagi №3 sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2026 yil dekabrigacha

Ta'lim muassasasi nomi		Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kafedra/ bo'lim		Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish			
O'quv dastur nomi		Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash			
O'qish turi		Qo'shimcha ixtisoslashtirish kursi			
O'quv dastur muallifi/ mualliflari		Asadov D.A., Xakimov V.A., Xamrayev A.K., Muxammadiyev R.Z.			
Siklning umumiy soati		216 kredit			
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar					
					
Professor Asadov D.A.		Dotsent Xakimov V.A.			
		Dotsent Asadov X.D.		Dotsent Xamrayev A.K.	
					
				Dotsent Narmuxamedova N.A.	
					
Dotsent Muxammadiyev R.Z.					
					
Katta o'qituvchi Aripov T.Yu.		Katta o'qituvchi Sadikxadjayeva D.A.			
		Katta o'qituvchi Abduraximova S.B.		Assistent Abbasxanova Sh.N.	
					
				Katta o'qituvchi Agzamov A.A.	
Maqsad		O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va boshqa davlat tibbiyot muassasalari rahbarlariga sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash bo'yicha yangi bilim va amaliy ko'nikmalar berish.			

Siklga taklif qilingan mutaxassislar – kontingent	Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va boshqa davlat tibbiyot muassasalarining barcha rahbar xodimlari (rahbarlar va ularning tibbiyot, ilmiy, moliyaviy-iqtisodiy va xodimlarni boshqarish ishlari bo'yicha muovirlari). Mazkur kursda sog'liqni saqlash tizimi boshqaruv organlari, davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari, o'rinbosarlari, rahbar lavozimga tavsiya etilayotgan mutaxassislar, ta'lim muassasalarini sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlashga oid kafedra, bo'linmalari xodimlari ham ta'lim olishlari mumkin.
Sikl vazifalari	<u>Tinglovchilarni quyidagilar bilan tanishtirish:</u> -sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash iqtisodiyoti, sog'liqni saqlashni boshqarish, jamoat sog'lig'ini saqlash, tibbiy statistika, dalillarga asoslangan tibbiyot negizlari; -sog'liqni saqlash tizimining tarkibiy tuzilmasi; faoliyat ko'rsatishining asosiy yo'nalishlari; milliy sog'liqni saqlash tizimining xususiyatlari, moliyalashtirish ko'rinishlari; amaldagi xolati va oldidagi vazifalari bilan; -sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan davlat hokimiyati oliy organlarining va Sog'liqni saqlash vazirligining meyoriy xujjatlari bilan; -sog'liqni saqlashda boshqaruv tizimi, vazifalari, tarkibiy tuzilmasi, amalga oshirish mexanizmlari bilan; -xududiy tibbiyot birlashmalari, jumladan birlamchi tibbiy sanitariya muassasalari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bilan; -aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning maqsad, vazifalari va bunda umumiy amaliyot shifokorining roli va vazifalari bilan; -biriktirilgan aholi salomatligini saqlash bo'yicha faoliyatni tashkillashtirish, jumladan aholida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yo'nalishlari bilan; -sog'liqni saqlash tizimida tashxislash-davolash jarayonini standartlashtirishni klinik ko'llanmalar va protokollarni joriy etish orqali amalga oshirish; -sog'liqni saqlash tizimida raqamli sog'liqni saqlashni joriy etish negizi, mazmuni, bosqichlari bilan; -sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish va buxgalteriya xizmati, davlat-xususiy sherikchilik negizlari, yangi moliyaviy mexanizm, tibbiy sug'urta asoslari bilan. <u>Tinglovchilarga quyidagilarni o'qitish:</u> -sog'lom axolining salomatligini saqlash tamoyillarini, -tibbiyot xodimlari va umuman muassasalar faoliyatini baholashda statistik ko'rsatkichlardan foydalanishni;

	-tibbiy yordam muassasalarida ish haqi va buxgalteriya xisobini; -sog'liqni saqlashda boshqaruv modellarini; -sog'liqni saqlashni tubdan isloh qilish konsepsiyasini; -sog'liqni saqlash tizimi uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va uzluksiz kasbiy ta'lim negizlari; -xududiy tibbiyot birlashmalarida skrining va profilaktika tadbirlarini o'tkazishni; -birlamchi tibbiy sanitariya xizmati va ixtisoslashtirilgan xizmatlar xususiyatlari hamda xamkorligi yo'nalishlarini; -sog'liqni saqlashda boshqaruv tizimi, vazifalari, tarkibiy tuzilmasi, amalga oshirish mexanizmlarini; -sog'liqni saqlashda boshqaruv organlari faoliyatini tashkillashtirishni; -sog'liqni saqlash tizimigda raqamli sog'liqni saqlashni joriy etish negizi, mazmuni, bosqichlari bilan.
Sikl tarkibi	Modul 1. Mamlakat ijtimoiy hayotidagi islohotlar. Modul 2. Jamoat salomatligi. Modul 3. Sog'liqni saqlashni boshqarish. Modul 4. Tibbiy statistika. Modul 5. Sog'liqni saqlash iqtisodiyoti, moliyalashtirilishi, tibbiyot muassasalarini buxgalteriya hisobi. Modul 6. Tibbiy xizmat sifatini boshqarish. Tibbiy xizmatni litsenziyalash. Dalillarga asoslangan tibbiyot. Modul 7. Birlamchi tibbiy sanitariya yordami xizmati. Tibbiy-ijtimoiy xizmat. Modul 8. Sog'liqni saqlash tizimidagi aloxida xizmatlar taxlili. Modul 9. Sog'liqni saqlashni raqamlashtirish. Modul 10. Tibbiy huquq, onalik va bolalik muhofazasi xizmati, palliativ yordam. Modul 11. Sog'liqni saqlash tizimida qonunchilik, huquqiy xizmat, mehnat munosabatlari. Modul 12. Sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaga qarshi kurash. Sog'liqni saqlash tizimida dori va tibbiy vositalar ta'minoti. Modul 13. Davlat hokimiyati oliy organlari tomonidan 2017-yildan boshlab sog'liqni saqlash soxasi bo'yicha qabul qilingan meyoriy xujjatlar sharhi. Topshiriqlar ijrosi bo'yicha tinglovchilarni baholash. Yakuniy imtihon, baholash.
O'quv bazalari	<u>Asosiy o'quv baza:</u> Toshkent shahri, Parkent ko'chasi, 51 uy. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. "Jamoat sog'lig'ini saqlash va sog'liqni saqlashni boshqarish" kafedrası. Mashg'ulotlar kunduzgi (bevosita) hamda masofaviy tartibda interfaol ko'rinishda olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun bazalar: kafedrani ikki tomonlama shartnomalari mavjud davolash-profilaktika muassasalari. Masofaviy va sayyor mashg'ulotlar o'tkazish uchun foydalaniladi.

Sog'liqni saqlashni boshqaruv organida amaliyot o'tash uchun bazalar:

Sog'liqni saqlash vazirligi, tegishli xududiy sog'liqni saqlash boshqaruv organi tomonidan ta'minlab beriladigan bazalar.



Ўқув жараёни



Амалий машғулотлар жараёни



Команда таркибдаги иш ўйини бўйича тахлил жараёни

